

**INTERNET TARMOQLARINING YOSHLAR ONGIGA MA'NAVIY
VA RUHIY TA'SIRI**

Abdurasulova Latofat Buriyevna.

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani MMTB qarashli 25-maktab amaliyotchi
psixologi*

ANNOTASIYA : *Internet tarmog`ida o`tirgan kishi ko`pincha yolg`iz bo`ladi. Internet – bu shunday bir katta bozorki, bu yerda xaridor o`ziga kerakli narsani topadi. Ushbu bozorda “savdosi chaqqon”, ko`p xaridorlarni jalg qilayotgan o`yinlar, kliplar, fotosuratlar va videolavhalar juda ko`p. Bularning ta'sirida yoshlarda har tomonlama begonalashish jarayoniga moyilligi ortib boradi va axloqdan uzoqlashib boradi. Abdulla Avloniy yosh avlodni go`zal qilib tarbiyalashga chaqirib: “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo`lib o`sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak, yerdan turib yulduzlarga qo`l uzatmak kabitdir. Din va e`tiqodi salomat bo`lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, bunday kishilardan na`ziga va na boshqa kishilarga va na millatiga tariqcha foyda yo`qdir” - deb ta'kidlaydilar.*

Kalit so`zlar: begonalashuv, “FFF” nazariyasi, transfarmatsion jarayonlar, mafkuraviy xuruj, kibermaydon, mediakompetentlik, information madaniyat.

KIRISH

Bir qator ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda “gegemon” bo`lishga intilib, foydalanuvchilarni o`z domiga tortishga xizmat qiluvchi yangidan-yangi “xizmat”larni taklif etmoqdalar. Ular orasida ayniqsa facebook ijtimoiy tarmog`i foydalanuvchilarining soni va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko`ra, AQShda Facebook 18-24 yoshli foydalanuvchilari soni 41 million, Buyuk Britaniya va Fransiyada 7,8 million kishini tashkil qiladi.

Yoshlar ongini egallash uchun bu ijtimoiy tarmoqlar juda qo`l kelmoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Masalan, Avg`onistonda Tolibon harakati o`z safiga yangi a`zolarni jalb etish, erishilgan “yutuqlarni” ovoza qilish va zarur ma`lumotlarni e`lon qilish maqsadida 2011-yilning may boyidan boshlab dunyo bo`ylab ommalashgan “Twitter” ijtimoiy tarmog`idan foydalana boshlagan.

Vaholanki, Tolibonlar televizor, radio singari zamonaviy texnologiyalarni mutlaqo inkor etib, o`z a`zolarini bulardan ehtiyyot bo`lishga qattiq buyurar edi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o`n yetti yoshgacha bo`lgan 6 ming bola o`rtasida o`tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko`ra, ular sodda ota-onalari o`ylaganidek, internetdan aksariyat, hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So`rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o`n nafaridan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshlaringning yarmidan ko`pi internet va kompyuter texnologiyalarni otaonalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo`lgan “filtrlash” dasturini o`rnatib qo`ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Bu holat barcha mamlakatlarda ham deyarli shunday. Masalaning yana bir jihat shuki, u internet orqali ta`qib deb nomlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko`p “sayohat” qiluvchi foydalanuvchilarning mas’uliyat hissi qolganlarga nisbatan sustroq bo`lishligi kundalik tajribalardan barchamizga ayon. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsni, ayniqsa, yoshlarni yashab turgan davri hayotiy masalalaridan uzoqlashtiradi. Sekin-asta bu shaxsda atrofdagilardan uzoqlashish hissini–begonalashuv jaryonini keltirib chiqaradi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarga bog`lanib, o`zining kurakda turmas haqoratlari, amalga oshirilayotgan islohotlarga noxolis bahosi, yon-atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabatini aytishga urinayotgan shaxslar, ayniqsa yoshlarni Vatanimiz ertasi, millatimiz taqdiri uchun jon kuydirayotganiga ishonish qiyin. Bundan tashqari, birovning hayotiga, yon-atrofida sodir bo`layotgan voqeа-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo`lib yashayotgan, o`z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisolli begona odamdek qarayotganlarni ham uchratayotganimiz nafaqat shu inson, uning oilasi uchun, qolaversa butun jamiyat

va kelajak uchun achinarlidir.

Mavjud yangiliklar, yangi texnik munosabatlar oqibatida kishilar mentalitetida muayyan tranfarmatsion jarayonlar kuzatiladi. Axborot markazlari o`rtasida dunyoda mafkuraviy yetakchilik qilish va shu orqali gegemon bo`lishga intilish tobora keng avj olmoqda. Shunday masala borasida XIX asr oxirida mustamlakachilik avj olgan vaqtida rus mustamlakachi vakillaridan biri general Skobelevning: “Millatni yo`q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san`atini, tilini yo`q qilsang bas, tez orada o`zi tanazzulga uchraydi”- deb aytgan behayo so`zлari bekorga aytilmagan, albatta. Bu g`oyani buyuk davlatlar faqat o`sha davrda amal qilgan, ayni damda biz insonparvar, tinchlik zamonida yashayabmiz desak, o`z-o`zimizni aldagan bo`lamiz. Shu o`rinda S.Yusupovning ijtimoiy tarmoqlarda ko`plab shov-shuvlarga sabab bo`lgan “FFF” nazariyasi ko`plab shaxslarni ko`zini ochdi.

Mafkuraviy xurujlar axborotlashgan jamiyatda global axborot tarmoqlari vositasida insoniyatning katta qismini qamrab olish imkonini berdi. Keng ko`lamli va tezkor ijtimoiy o`zgarishlar sharoitida bunday ta'sirning kuchayishi aniq, albatta. Yangilanib kelayotgan sotsiumda, yangilanishni eskilik bilan kurashidagi ittifoqdoshi bo`lib, aynan yoshlar turadi va mushkul, ziddiyotli ijtimoiy jarayonning markazida bo`lib, o`z davrining birinchi jabrlanuvchisi va oxirgi qahramoniga aylanadi. Boshqa ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga qaraganda, o`zgarishlar davridagi bosim ostiga tushgan yosh avlod o`zini himoya qilishning xususiy shakl va uslublarini ishlab chiqaradi. Tubdan ijtimoiy o`zgarishlar davrida yangilanayotgan jamiyatni jahon rivojlanishining magistral liniyasidan chetlanish va hattoki, uning harakatini orqaga - “taraqqiyotning berk ko`chasiga” olib kelishi havfi tug`iladi. Tezkor o`zgarayotgan, global tahlikalarga uchrayotgan zamonaviy dunyoda bunday xavf anchaga kuchaydi. Shu sabab, bunday xavf tug`diruvchi salbiy yo`nalishlarga samarali qarshilik ko`rsatish bugungi kun barcha soha vakillari, ayniqsa faylasuflar, ma`naviyat sohasi vakillari uchun dolzarb masaladir. Bu masala barcha progressiv (taraqqiyparvar) kuchlarning, jumladan alternativ yoshlar harakat va majmualarning birlashuvi asosida amalga oshiriladi. Yuqorida ko`rsatilgan yo`nalish tomon harakat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qilinishiga zamonaviy madaniy-tarixiy vaziyat sabab bo`lib, “begonalashuv” tushunchasi bilan ta’riflanadi. Hozirgi kunda aynan yoshlar muhiti, begonalashgan va o`zgargan ijtimoiy tuzilmalar doirasida yashashga nisbatan gumanistik muqobililikni izlashga majburlaydigan muhim manba hisoblanadi. Ijtimoiy muhitni begonalashuvi sababiga ko`ra insonparvarlikdan chetlangan sharoitlarda yoshlarni erkin rivojlanishi va muvaffaqiyatli o`sishiga imkon bermasligidadir. Ushbu negizda mavjud bo`layotgan ijtimoiy ziddiyotlar va xavfning ko`payishi hollari, begonalashuvning salbiy asoratlarini minimallashtirish muammosini dolzarbligidan dalolat beradi, bunda zamonaviy yoshlar jamoalarining himoya va ijodiy potentsialidan foydalaniladi. Zamonaviy dunyoda hukm qilayotgan ijtimoiy begonalashishni yoki uni alohida tomonlarini anglash ayniqsa bugungi global miqyosda ijtimoiy tarmoqlar kengaygan, ularning o`rni va roli har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etayotgan davrda juda dolzarbdir. Ma’lumotlilik ko`p darajada insonning xohish-irodasiga bog`liq bo`lib qoladi. Shu bilan birga keng axborot oqimi, qulay imkoniyatlar yovuz niyatlar quroliga ham aylanib, kishilar ongiga manipulyatsion ta’sir etmoqda. Kuchli axborotlashuv jarayonida insonlar ongini egallash jarayonida kishilarda mafkuraviy immunitet, mediasavodxonlikning yetishmasligi “begonalashish” jarayoninini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda begonalashish tuyg`usi ayrim etnik guruh doirasidan tashqari chiqib, o’z ta’sir ko`lamini kengaytirmoqda.

Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Ammo, virtual olamdan ayrim kuchlar g`arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham haqiqatdir. Bunga qarshi har bir mamlakat o`z kelajagi haqida qayg`urib munosib kurash olib bormog`i bugungi kunning zaruratidir. Internet madaniyat hodisasi sifatida o`zini ikki yo`nalishda namoyon qiladi. Birinchisi, madaniyatning milliy sarhadlarining yuvilib ketishi, til to`siqlarini yengib o`tish, madaniyatning fan, san’at, ta’lim, bo`sh vaqt va hokazo shakllari o`rtasidagi to`siqlarni buzib yuborish bilan bog`liq.

Ikkinci yo`nalish, internetning madaniyat mohiyatini nafaqat passiv ravishda qabul qilinishiga imkoniyat yaratishida, balki internetning unga ta’sir

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko`rsatishida ham namoyon bo`ladi. Internetning o`zi madaniyatlarning kommunikatori sifatida namoyon bo`lgan holda nafaqat madaniyatlararo muloqotning ajoyib vositasi hisoblanadi, balki tarmoq ishtirokchilarining har biri teng huquqli, o`z ovoziga ega bo`lgan, umumiy “ovozga” ta’sir ko`rsatgan holda o`z ovozini boshqalarning ovozlariga qo`shishi mumkin bo`lgan global dialog madaniyatining tug`ilishi haqida xabar beradi. Har bir shaxsning individual hissasiga va shu bilan birga global ijodga yo`naltirilganlik – yangi kibernetik madaniyatning asosiy jihatni mana shundan iborat. Internet global tarmog`i qismlari turli milliy sohalarga bo`lingan qandaydir “umummadaniy muhit” sifatida ta’riflash mumkin. Masalan, AQShning – us, Buyuk Britaniyaning – uk, Qozog`istonning – kz, Rossiyaning – ru, O`zbekistonning – uz deb nomlanuvchi internet muhitlari bo`lgan milliy zonalarga bo`linadi. Internet tarmog`ida ularning barchasi doimiy virtual o`zaro munosabatlarda bo`ladilar. Hozirgi vaqtida ko`plab tadqiqotchilar tomonidan mazkur global madaniyatlararo dialogda Runet zonasini begona madaniyatlar siquvi ostida qator qiyinchiliklarga duch kelayotganligi tan olinayotgan[9] bo`lsada, bunday xavfdan hech qaysi tarmoq zonasini yiroqda deya olmaymiz.

Internet buzg`unchilar makoniga aylanishining asosiy sabablari quyidagilar:

Internetning tartibga solinmaganligi;

Internetdagi faoliyatning maxfiyligi;

Axborot joylashning qulayligi;

Cheksiz auditoriya;

Axborotlarni yetkazish tezligi.

Jamiyat hayotida begonalashuvning quyidagi turlarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy.
2. Siyosiy.
3. Madaniy.
4. Ijtimoiy.
5. Ruhiy.

Axborotlashgan jamiyat imkoniyatlaridan ko`plab kuchlar o`z manfaatlari yo`lida foydalanishlari natijasida zo`ravonlikka, milliy qadriyatlarimizga zid bo`lgan “ommaviy madaniyat” na`munalarini targ`ib qilish vositasida ma’naviy qadriyatlarning devalvatsiyasi, kishilar, ayniqsa yoshlar ma’naviy, axloqiy va ijodiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

imkoniyatlarining pasayib ketishi kuzatilmoque, bu esa o`z navbatida yangi texnologiyalarning, jumladan, axborot texnologiyalarining joriy qilinishi va qo`llanilishi uchun mehnat manbalarini tayyorlashni ahamiyatli ravishda murakkablashtirmoqda. Bu jarayonlar erkinlikni yo`qotishdan qo`rqish, ortib borayotgan yakkalanib qolish, odamlarning begonalashuvi va zamonaviy insonning global kommunikatsiyalarga bog`lanib qolishi natijasida vujudga kelayotgan yolg`izlik hissi faol ravishda namoyon bo`lmoqdaki, bunga ayniqsa internet tarmog`ining “virtual shaxs” va “internet-tobelik” kabi hodisalari ham ta`sir ko`rsatmoqda. Mazkur hodisalar oqibatida barcha ijtimoiy aloqalar ham shuningdek, virtual tabiatga ega bo`lmoqda. Begonalashish - zamonaviy axborotlashgan jamiyatga xos bo`lgan, inson faoliyati va uning natijalarining ular ustidan hukmron bo`lgan va u bilan raqobatlashuvchi mustaqil kuchga aylanishi bilan ifodalanuvchi obyektiv ijtimoiy jarayondir. Shaxsning internetdagi begonalashishi foydalanuvchi o`zi uchun virtual shaxsni yaratganida va u kibermaydon ichida yashay boshlaganida sodir bo`ladi, u to`laqonli ravishda laqab (Nik) yordamida o`z qiyofasini yashirishi, yoki ko`plab qiyofalarga ega bo`lishi mumkin, shu bilan birga hech bir qiyofa o`zining haqiqiy “xo`jayini”ga mos bo`lmasligi ham mumkin. Shaxs kibermaydonda tarmoqning o`ziga xos xususiyatlari tufayli - bu virtual, barcha yerda mavjud bo`lgan, nisbatan ko`proq ijodiy va yashirin shaxsdir va virtual shaxslarni ne`mat yoki buzg`unchi kuch sifatida qanday qilib o`rganish mumkin, degan savolga bir turli javob mavjud emas. Biroq shaxsning begonalashuvi uning barcha atributlarining virtuallashtirilishi yordamida sodir bo`ladi, iroda, erkinlik, qadr-qimmat kabilar ko`pincha virtual shaklga kirgan holda o`zgarishi mumkin, ko`proq bu kabi o`zgarishlar shaxsning o`zi kabi boshqa foydalanuvchilar uchun ham o`ta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, anonimlik tufayli va internetda mas`uliyatning mavjud emasligi sababli foydalanuvchida barcha narsa mumkinligi hissi vujudga keladi, birovning erkinligi, qadr-qimmatini buzgan holda nafaqat ruhiy zarar keltiruvchi, balki shaxsga moddiy ziyon ham yetkazishi mumkin bo`lgan buzg`unchi virtual shaxslar paydo bo`ladi (masalan, hakerlar va boshqalar).

Kuzatishlarga qaraganda, begonalashish tuyg`usi bir necha yillarning

mahsuli sifatida namoyon bo`ladi va uni keltirib chiqaruvchi omillar, turtkilar xilma-xildir. Bizningcha, bu omillarga turli hayot va faoliyat vaziyatlaridan shakllangan pessimistik, optimistik, sentimentalistik tuyg`ular, eydetik obrazlar (lotincha “o`chmas iz”), muvaffaqiyatsizliklar, armon, qo`msash (ma`lum muddatdan so`ng), tanholik tuyg`ulari va boshqalar misol bo`ladi. Ana shu ijtimoiy muhit jamiyatning bugungi axborotlashuv jarayonida yaqqol ko`zga tashlanmoqda.

XULOSA

Kelajakda kibermaydonda begonalashish muammosining keskinligini kamaytirish imkonи bo`lib yangi dasturiy vositalarni, masalan, “nomaqbul” web-manbalarni va ularga yo`naltiruvchi havolalarni to`sish dasturlarini ishlab chiqish hisoblanadi(buning uchun hozir ham barcha zarur texnologiyalar mavjud, masalan, “Kiber-enaga”, “Firewall” va b.), ehtimol, tartib o`rnatishga qaratilgan, jumladan ayrim saytlarning rahbarlariga qaratilgan maxsus davlat dasturi, virtual shaxslarni “to`sinqqa tushirish” va hokazolar talab etilishi mumkin. Ayrim yoshlarda begonalashuvning yuzaga kelishi bu ijtimoiy muhit, oilaviy hayot, atrofdagilarning kuchli ta`siri ostida yuzaga keladi. Farzandlarimizni zarur madaniy-ma'rifiy, foydali ishga jalg etish yo`lidagi kamchiliklar bu kabi illatning ildiz otishiga sabab bo`ladi.Bugungi yoshlar “dunyoni o`zgartirish”ga harakat qilib, anglab yoki anglamasdan, o`ziga mos dunyoqarash, g`oya, manfaat va maqsadlari bo`lgan maslakdoshlar izlamoqdalar. Yoshlar submadaniyati egalari va yaratuvchilari tomonidan begonalashuvning qaysi tomonlari anglanishiga qarab, ularning yo`nalishlari aniqlanadi. Yangi barpo etilgan yoshlar submadaniyati egalari ijtimoiy voqelikni o`zgartirishga harakat qilishni endi birgalikda amalga oshirganlar, ammo nonkonformistlarni o`zidan itarib, va shu vaqtin o`zida ularni qayta tarbiyalashga, assimilyatsiya qilishga harakat qiluvchi jamoat a`zolari tomonidan kelgan tushunmovchiliklar bilan muqarrar to`qnashardilar. Tashqi ta`sirga bo`ysinmagan nonkonformist yoshlar submadaniyati, o`z navbatida, jamiyatdan uzoqlashgan, “yashirin harakatlarga” o`tgan. Ushbu kontekst bo`yicha nonkonformistlarni begonalashuvi, ularni “katta jamiyat” taklif etgan g`oya va maqsadlarni, shuningdek

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shu maqsadlarga yetish usullari va vositalarini ongli ravishda rad etishga ekvivalentdir. Shunday qilib, yangi tashkillangan submadaniyati bir vaqt ni o`zida jamiyatdan begonalashgan va o`z-o`zidan begonalashgan jamoa hisoblanadi. Yoshlar submadaniyati mavjudligini ushbu bosqichida jamiyatning o`ziga xos shakllari tashkil topgan: kommunal, kvota, obshina va fletalar. Hatto begonalashgan ahvolda bo`lib, jamiyat hayotida kardinal ijobiy o`zgarishlarni amalga oshirish imkoniyati yo`qligini tushunib turgan alternativ g`oya, me`yorlar, manfaat va maqsadlar egalari nimanidir bo`lsada o`zgartirish uchun o`zining faoliyatini davom etib kelishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Abdurahmonov M, Rahmonov N. Madaniyatshunoslik. Toshkent – 2008. 124-b

Мировая экономика и международные отношения, 1998, №1, с.13.

Falsafa, qomusiy lug'at. Toshkent, Sharq- 2004 yil, 95 bet

Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- Toshkent.:

Movaraunnahr, 2016, 34-bet -408 b

Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent, Sharq NMIU, 2005. 124-bet

Q.Usmonov. O'zbekiston tarixi. Darslik. Toshkent-2016. 17-bet

Баришев Р.А. Киберпространство и проблема отчуждения. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата философских наук. Красноярск – 2009

Огбёрн Г. Философия техники. –М.: Современные тетради, 2005. –С.35

Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт Социального прогнозирования. – Москва.Академия, 1999. –С.220

Орtega-и-Гассет. Восстание масс//Избр. Труды. –Москва. Вес миръ, 1997, С.221

Тоффлер Э. Новая технологическая волна на Западе. –Москва.Прогресс, 1986. –С.161